

OLIV TA'LIMDA BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA XALQARO MODELLARI

Sobirjonova Gulnozaxon Ilyosjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Loyiha boshqaruvi yo'nalishi magistranti

sobirovagulnoza11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21093575>

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida aralash ta'lim texnologiyalarini joriy etish, jahon tajribasida o'zini oqlagan zamonaviy modellar va ularni milliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirishning kichik loyihalari muhokama qilinadi. Tadqiqotda aralash ta'limning mohiyati, moslashuvchanlik, samaradorlik sifatleri va joriy etishdagi asosiy to'siqlar aniqlangan. Xalqaro modellardan Singapur - 70:30 modeli, Germaniya teskari sinf – flipped classroom va Shveysariya - tayyorlik matritsasi qiyosiy tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aralash ta'limni joriy etish bosqichlarini, professor-o'qituvchilarni tizimli tayyorlashni, infratuzilmani rivojlantirishni va milliy modelni yaratishni talab qiladi. Ushbu tezis oliy ta'lim tizimi rahbarlari va pedagoglari uchun aralash ta'limni ilmiy-metodik jihatdan asoslashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, blended learning, oliy ta'lim, metodologik asoslar, xalqaro modellar, O'zbekiston, teskari sinf, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В настоящих тезисах рассматриваются вопросы внедрения технологий смешанного обучения в систему высшего образования Узбекистана, современные модели, зарекомендовавшие себя в мировой практике, и микро проекты по их гармонизации с национальной системой образования. В ходе исследования определены сущность, гибкость и эффективность смешанного обучения, а также выявлены ключевые барьеры на пути его внедрения. Проведен сравнительный анализ таких международных моделей, как сингапурская модель «70:30», немецкая модель «перевернутый класс» (flipped classroom) и швейцарская матрица готовности, и оценены возможности их адаптации к условиям Узбекистана. Согласно результатам исследования, внедрение смешанного обучения требует поэтапной реализации, системной подготовки профессорско-преподавательского состава, развития инфраструктуры и создания национальной модели. Данные тезисы имеют практическое значение для руководителей и педагогов системы высшего образования в качестве научно-методического обоснования смешанного обучения.

Ключевые слова: смешанное обучение, blended-learning, высшее образование, методологические основы, международные модели, Узбекистан, перевернутый класс, цифровая трансформация.

Abstract: This abstract discusses the implementation of blended-learning technologies within the higher education system of Uzbekistan, focusing on modern models proven effective in international practice and mini-projects aimed at harmonizing them with the national education system. The research identifies the essence, flexibility, and effectiveness of blended-learning, as well as the primary barriers to its implementation. A comparative analysis of international models, including Singapore's 70:30 models, Germany's Flipped Classroom, and Switzerland's Readiness Matrix, is conducted to evaluate the prospects of their adaptation to

the context of Uzbekistan. The findings indicate that the successful integration of blended-learning requires structured implementation phases, systematic professional development for faculty, infrastructure enhancement, and the creation of a tailored national model. This study holds practical significance for higher education administrators and educators in providing a scientific and methodological foundation for blended learning.

Keywords: blended-learning, hybrid learning, higher education, methodological foundations, international models, Uzbekistan, flipped classroom, digital transformation.

Kirish

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi va COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga o'tish oliy ta'lim tizimida o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. An'anaviy va onlayn ta'limning foydalarini birlashtiruvchi aralash ta'lim (blended learning) modeli butun dunyoda keng tarqalgan. Singapur, Germaniya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarda ushbu modelning samaradorligi amaliyotda isbotlangan bo'lsa-da, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida uni joriy etish uchun metodologik asoslar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar aralash ta'limga nisbatan ijobiy fikrlar mavjudligini ko'rsatadi, ammo internet infratuzilmasi, professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va milliy modellar yetishmasligi kabi muammolar haligacha davom etmoqda. Shu sababli, ushbu tezisning maqsadi O'zbekiston oliy ta'limida aralash ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun metodologik asoslarni aniqlash va ilg'or xalqaro modellarni tahlil qilishdir. Tadqiqot vazifalari sifatida aralash ta'limning afzalliklari va to'sqinliklarini o'rganish, yetakchi xorijiy modellarni (70:30 modeli, teskari sinf, yetuklik matritsasi) qiyosiy tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilangan.

Asosiy qisim

Aralash ta'lim (blended learning) – bu an'anaviy yuzma-yuz va onlayn o'qitish usullarining maqsadli, tizimli va bir-biri bilan bog'langan kombinatsiyasidir. Ushbu metodologiya konstruktivizm, kognitiv yuklanish nazariyasi va teskari sinf (flipped classroom) tamoyillariga asoslanadi (Garrison & Vaughan, 2008, Bergmann & Sams, 2012). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'quv jarayonini shaxsiylashtiradi va o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi interaktivlikni oshiradi (Means et al., 2013).

Biroq, uni joriy etishda quyidagi metodologik shartlarga rioya qilish kerak:

- 1) o'quv materialining modullashtirilgan tuzilishi;
- 2) sinxron va asinxron mashg'ulotlar muvozanati;
- 3) talabalardan doimiy fikr-mulohazalar olish tizimi;
- 4) professor-o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini yaxshilash.

Xalqaro modellarning tavsifi va O'zbekiston uchun potentsiali.

Model nomi	Tavsifi va xususiyatlari	O'zbekiston uchun potentsiali
70:30 Modeli (Singapur)	Mashg'ulotlarning 70% asinxron onlayn, 30% esa sinfxona yoki sinxron onlayn tarzda o'tkaziladi.	Ish bilan band bo'lgan kattalar va mutaxassislarni qayta tayyorlash uchun juda mos keladi. Dasturiy ta'minot va IT sohasi uchun qulay

	“Teskari sinf” usuli asosida ishlaydi	
Yaxlit konsepsiya (Germaniya)	Grammatika kabi mavzular onlayn, muloqot va amaliy ko’nikmalar esa sinfda o’rgatiladi. Bu teskari sinf modelining bir variantidir.	Til o’rgatish va nazariy fanlarda qo’llash mumkin. Talabalar materialni uyda o’zlashtirib darsda muhokama qiladi.
Institutlarning yetuklik matritsasi (Shveysariya)	Universitetlarning aralash ta’limga tayyorgarlik darajasini baholash tizimi.	Har bir universitetga o’z holatini tahlil qilish va boshqichma-bosqich rivojlanish strategiyasini tuzishga yordam beradi

Dunyo tajribasida aralash ta’lim uchun bir nechta modellari ishlab chiqilgan. Singapur modeli (70:30) bo’yicha darslarning 70% asinxron onlayn tarzda, 30% esa yuzma-yuz yoki sinxron onlayn ravishda o’tkaziladi (Lim & Wang, 2016). Ushbu model ish bilan band mutaxassislarni qayta tayyorlashda samarali natija beradi. Germaniyada keng tarqalgan “teskari sinf” modelida talabalar nazariy materialni uyda onlayn ravishda o’zlashtirib, sinfda muhokama va amaliy mashg’ulotlarga vaqt ajratadilar (Lage, Platt & Treglia, 2000). Shveysariya yetuklik matritsasi esa universitetlarning aralash ta’limga tayyorligini (boshlang’ich, rivojlanayotgan, yetuk, ilg’or) baholash imkonini beradi (Graham, 2006). Har bir modelning o’ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud bo’lib, ularni milliy kontekstga moslashtirish zarurdir.

O’zbekistonda o’tkazilgan empirik tadqiqotlar (so’rovnomalar, intervyular) talabalar va professor-o’qituvchilarning ko’plab qismi aralash ta’limga ijobiy qarashlarini ko’rsatdi (Karimov & Rakhimova, 2021). Ayniqsa, o’qishni ish va oilaviy mas’uliyatlar bilan birlashtirayotgan talabalar uchun bu model juda qulaydir. Biroq joriy etishda uchta asosiy to’sqinlik mavjud (Yuldashev, 2020): birinchidan, internet tezligi va qamrovi yetarli emas, ayniqsa mintaqaviy universitetlarda; ikkinchidan, professor-o’qituvchilarning aksariyati raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to’g’ri qo’shish bo’yicha yetarli bilimga ega emas; uchinchidan, yagona milliy model va me’yoriy-huquqiy baza yo’qligi tizimli yondashuvni murakkablashtiradi (Abdullaev, 2022). Biroq, 2020-2025 yillarga mo’ljallangan “Raqamli O’zbekiston” davlat dasturi va oliy ta’lim muassasalarida Moodle, Google Classroom kabi platformalarni bosqichma-bosqich joriy etilishi yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O’zbekiston oliy ta’limi uchun bosqichli yondashuv taklif qilinadi. Birinchi bosqichda – pilot universitetlarda “teskari sinf” elementlarini joriy etish (Graham, Woodfield & Harrison, 2013). Ikkinchi bosqichda – 50:50 modeliga (50% onlayn, 50% yuzma-yuz) o’tish va o’qituvchilar uchun majburiy raqamli kompetensiya kurslarini tashkil etish kerak. Uchinchi bosqichda – Singapurning 70:30 modelini sirtqi va kechki bo’lim talabalariga moslashtirish zarur. Shuningdek, Shveysariya yetuklik matritsasi asosida har bir universitet o’z holatini baholab, rivojlanish strategiyasini belgilashi lozim (Graham, 2006). Metodologik jihatdan esa, aralash ta’limni joriy etish faqat texnologiyalarni o’rnatish emas, balki o’qitish madaniyatini, baholash tizimini va talabalar bilan aloqa kanallarini tubdan qayta qurish ekanligini anglash zarur.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning oliy ta'limida aralash ta'limni joriy etish uchun quyidagi metodologik asoslar kerak: o'quv mazmunini modullarga ajratish, sinxron va asinxron mashg'ulotlar o'rtasida muvozanatni saqlash, professor-o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va talabalardan doimiy fikr-mulohazalar olish uchun mexanizm yaratish. Xalqaro modellar, masalan Singapur 70:30, Germaniya teskari sinf va Shveysariya yetuklik matritsasi qiyoslanib, har biri O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkinligi aniqlangan. Biroq, mamlakatda internet infratuzilmasining yetarli bo'lmasligi, o'qituvchilarning raqamli tayyorgarlik darajasining pastligi va yagona milliy modelning yo'qligi joriy etishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar hisoblanadi.

Takliflar

1. Bosqichma-bosqich pilot joriy etish tizimini yaratish. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'z texnik va kadrlar salohiyatidan kelib chiqib avval "teskari sinf" elementlarini joriy qilishlari va keyin 50:50 modeliga o'tishlari tavsiya etiladi. Buning uchun Shveysariya yetuklik matritsasi asosida universitetlarning tayyorlik darajasini baholash mexanizmini ishlab chiqish zarur.

2. Professor-o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini oshirish uchun majburiy va doimiy treninglar o'tkazish. O'qituvchilarni nafaqat texnik vositalardan foydalanishga, balki aralash ta'limni metodik jihatdan qanday loyihalashtirishga ham o'rgatuvchi sertifikatlash tizimini yaratish kerak. Bunda qisqa muddatli kurslardan ko'ra, semestr davomida amaliy mashg'ulotlarga asoslangan dastur samaraliroq bo'ladi.

3. Milliy aralash ta'lim modelini ishlab chiqish va me'yoriy-huquqiy bazani yaratish. Vazirlik darajasida aralash ta'limni tartibga soluvchi alohida nizom yoki yo'riqnoma qabul qilinishi, unda onlayn va yuzma-yuz mashg'ulotlarning minimal va maksimal nisbati, baholash mezonlari, talabalarning ishtiroki va intellektual mulk huquqi masalalari aniq belgilanishi tavsiya etiladi. Bu tizimli va barqaror rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullaev, A. (2022) 'Problems of implementing blended learning in higher education of Uzbekistan', International Journal of Pedagogy, 8(2), pp. 45-52.
2. Bergmann, J. and Sams, A. (2012) Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. Washington: International Society for Technology in Education.
3. Garrison, D.R. and Vaughan, N.D. (2008) Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass.
4. Graham, C.R. (2006) 'Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions', in Bonk, C.J. and Graham, C.R. (eds.) The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer, pp. 3-21.
5. Graham, C.R., Woodfield, W. and Harrison, J.B. (2013) 'A framework for institutional adoption and implementation of blended learning in higher education', The Internet and Higher Education, 18(1), pp. 4-14.
6. Karimov, B. and Rakhimova, D. (2021) 'Attitudes of Uzbek students towards blended learning: An empirical study', Uzbekistan Journal of Educational Research, 5(3), pp. 112-120.
7. Lage, M.J., Platt, G.J. and Treglia, M. (2000) 'Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment', The Journal of Economic Education, 31(1), pp. 30-43.

8. Lim, C.P. and Wang, L. (2016) Blended Learning for Quality Higher Education in Selected Asian Countries. Singapore: UNESCO and National Institute of Education.
9. Means, B., Bakia, M. and Murphy, R. (2013) Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How. New York: Routledge.
10. Yuldashev, S. (2020) 'Digital competence of university teachers in Uzbekistan: Challenges and solutions', Central Asian Journal of Education, 3(2), pp. 88-97.

